O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA'MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“BANK ISHI” kafedrasi

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel



Samarqand - 2026

UO'K: 336:364.2:331.5
K 25
KBK: 65.262(5Uzb)

Bank-moliya tizimi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligni ta'minlash: muammo va yechimlar*: // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2026-yil 2-3-aprel. Samarqand, SamISI, 2026. – 822 bet.*

Bosh muharrir:
Karimova A.M. — i.f.d., prof., "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis institute.

Tahrirchi:
Tursunov F.M. — "Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

To'plamga iqtisodchi olimlar, doktorantlar, magistrlar, talabalarning kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini taminlashda tijorat banklarining o'rni, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashda tijorat banklarini rolini oshirish, ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish, raqamli bank xizmatlari va fintex yechimlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirish, xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlar orqali kambag'allikni qisqartirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar kiritilgan.

To'plam professor-o'qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, magistrlar, talabalar va amaliyot xodimlari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Po'latov M.E.	i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
Karimova A.M.	i.f.d., professor, "Bank ishi" kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Niyozov Z.D.	i.f.n., "Bank ishi" kafedrasi professori v.b., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tursunov F.M.	"Bank ishi" kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Maqolalarda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy qo'mita qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-66-6

©Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.
© "STEP-SEL" MChJ nashriyoti, 2026.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
2. Базельский комитет по банковскому надзору. Международная Конвергенция Оценка Капитала и Стандарты Капитала. Базель, 2002,-425 с.
3. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” fanidan o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.
4. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2017. 768 b.
5. U. Azizov, T. Karaliyev, T. Boboqulov va boshqalar. “Bank ishi” darslik. T.: “Fan va texnologiya”. 2016. 640 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankini 2015-yil 13-iyundagi 14/3-sonli

“Tijorat banklari kapitalini monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida”gi yo‘riqnomaga.

7. https://cbu.uz/uz/statistics/financing/72798/-internet resurs.

QAYTA TASHKIL ETISHNING AJRATIB CHIQARISH SHAKLIDA AKTIV VA MAJBURIYATLARNI TAQSIMLASHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazov Komil Baxramovich
SamISI boshqa tarmoqlarda buxgalteriya, hisobi va audit kafedrasi i.f.d., professori
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
SamISI tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korxonalarni qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shaklida aktiv va majburiyatlarni baholash hamda taqsimlash amaliyoti tahlil qilingan. Amalda mavjud bo‘lgan uslubiy muammolar, xususan, aktivlarni balans qiymatida baholash, gudvillni hisobga olish amaliyotining yetarli emasligi va taqsimot balansi shaklining standartlashtirilmaganligi aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida bozor tamoyillariga asoslangan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashtirilgan yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan. Shuningdek, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymatda baholash, moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobotlarda aks ettirish tartibi takomillashtirilgan. Taklif etilgan yondashuv hisob ma’lumotlarining ishonchliligi, shaffofligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *qayta tashkil etish, ajratib chiqarish, aktivlar, majburiyatlar, adolatli qiymat, gudvill, taqsimot balansi, MHXS.*

Аннотация. *В данной статье исследованы вопросы оценки и распределения активов и обязательств при реорганизации предприятий в форме выделения. Выявлены существующие методологические проблемы, включая использование балансовой стоимости активов, недостаточное отражение гудвилла и отсутствие стандартизированной формы разделительного баланса. С целью устранения данных проблем разработан новый методический подход, основанный на рыночных принципах и адаптированный к требованиям международных стандартов финансовой отчетности. Предложены усовершенствованные методы оценки активов и обязательств по справедливой стоимости, формирования финансовых результатов и их отражения в отчетности. Реализация предложенного подхода способствует повышению достоверности, прозрачности и сопоставимости финансовой информации.*

Ключевые слова: *реорганизация, выделение, активы, обязательства, справедливая стоимость, гудвилл, разделительный баланс, МСФО.*

Abstract. *This article examines the issues of valuation and allocation of assets and liabilities in corporate reorganization in the form of spin-off. The study identifies key methodological problems, including the use of book value instead of fair value, insufficient recognition of goodwill, and the lack of standardized separation balance formats. To address these issues, a new methodological approach based on market principles and aligned with International Financial Reporting Standards (IFRS) is developed. The paper also proposes improvements in fair value measurement, financial result determination, and financial reporting practices. The proposed approach enhances the reliability, transparency, and comparability of financial information.*

Keywords: *corporate reorganization, spin-off, assets, liabilities, fair value, goodwill, separation balance, IFRS.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda korxonalarni qayta tashkil etish, jumladan, ajratib chiqarish shakli muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish va ixtisoslashuvni kuchaytirish imkonini beradi. Ajratib chiqarish jarayonida aktivlar va majburiyatlarni baholash, ularni taqsimlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur jarayonlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va yangi uslubiy yechimlarni ishlab chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish, xususiylashtirish va korporativ boshqaruvni rivojlantirish jarayonlari jadal kechmoqda. Bu jarayonlarda ajratib chiqarish shakli orqali yangi mustaqil sub’ektlarni tashkil etish amaliyoti keng qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv iqtisodiy faoliyatni ixtisoslashtirish, moliyaviy natijalarni aniq hisobga olish va resurslardan samarali

foydalanish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, davlat ishtirokini qisqartirish va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Biroq, amalda aktiv va majburiyatlarni baholashda adolatli qiymat usulining yetarli darajada qo‘llanilmayotganligi, gudvillni hisobga olish amaliyotining cheklanganligi hamda taqsimot balansi shaklining standartlashtirilmaganligi kabi muammolar mavjud.

Mazkur maqolada aynan shu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan holda, ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni taqsimlashning bozor tamoyillariga asoslangan yangi uslubiy yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv milliy amaliyotda ilgari kompleks tarzda qo‘llanilmaganligi bilan ajralib turadi. Jahon amaliyotida ajratib chiqarish jarayonlari (“spin-off”, “demerger”) korxonalar faoliyatini qayta tashkil etishning samarali vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida bunday jarayonlar MHXS 3, MHXS 10 va MHXS 13 standartlari asosida tartibga solinadi. Ushbu standartlarga ko‘ra, aktiv va majburiyatlar adolatli qiymatda baholanadi, gudvill yoki salbiy gudvill tan olinadi hamda hisobotlarda to‘liq ochib beriladi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan mazkur tamoyillar milliy hisob tizimiga moslashtirilib, ajratib chiqarish jarayoni uchun adaptatsiya qilingan holda taklif etildi. Bu esa milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni baholash va taqsimlash masalalari hozirgi kunda dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Amalda ko‘p hollarda aktivlar balans qiymatida taqsimlanishi natijasida ularning haqiqiy bozor qiymati to‘liq aks ettirilmaydi . Bu esa moliyaviy hisobot ma’lumotlarining ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, milliy hisob tizimida gudvillni hisobga olish, adolatli qiymat usulini joriy etish va taqsimot balansi shaklini standartlashtirish bo‘yicha yetarli uslubiy asoslar mavjud emas.

Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida, ushbu muammolarni hal etish maqsadida:

- aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash mexanizmi;
- taqsimotni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish usuli;
- moliyaviy hisobotda aks ettirishning takomillashtirilgan tartibi ishlab chiqildi.

Bu yondashuvlar hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish jarayonlarida aktiv va majburiyatlarni baholash va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish zarurati ilmiy jihatdan asoslandi. Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish amaliyotini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur sohada bir qator tizimli muammolar va uslubiy kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular moliyaviy hisobotning ishonchliligi va xalqaro standartlarga muvofiqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, asosiy muammolardan biri aktiv va majburiyatlarni baholash usuli bilan bog‘liqdir. Amalda ko‘p hollarda aktivlar balans (qoldiq) qiymati asosida taqsimlanadi, bu esa ularning haqiqiy

bozor qiymatini to‘liq aks ettirmasligiga olib keladi. Natijada, moliyaviy hisobotda korxonaning real iqtisodiy holati buzib ko‘rsatiladi, aktivlar qiymati sun’iy ravishda past yoki yuqori baholanishi mumkin. Bu esa investitsion qarorlar qabul qilishda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Ikkinchi muhim muammo – gudvill va salbiy gudvillni hisobga olish amaliyotining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq, qayta tashkil etish jarayonida aktivlar va majburiyatlar o‘rtasida yuzaga keladigan farq gudvill yoki salbiy gudvill sifatida tan olinishi lozim. Biroq milliy amaliyotda bu ko‘rsatkichlar ko‘p hollarda hisobga olinmaydi yoki boshqa moddalar tarkibida yashirin holda aks ettiriladi. Bu esa moliyaviy natijalarning haqqoniyligini pasaytiradi va hisobotning axborot qiymatini kamaytiradi.

Uchinchi muammo – taqsimot balansi shaklining yagona normativ asosga ega emasligi hisoblanadi. Amalda korxonalar tomonidan turli formatlarda taqsimot balanslari tuzilishi natijasida hisobot ma’lumotlarining birxilligi ta’minlanmaydi. Bu esa ularni taqqoslash, tahlil qilish va auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar ajratib chiqarish jarayonlarini hisob va hisobotda aks ettirish tizimini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada xalqaro standartlarga mos, ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ajratib chiqarish jarayonida aktiv va majburiyatlarni taqsimlashning bozor tamoyillariga asoslangan, xalqaro standartlarga moslashtirilgan yaxlit uslubiy modeli ishlab chiqildi. Mazkur model aktivlarning haqqoniy qiymatini aniqlash, moliyaviy natijalarni to‘g‘ri shakllantirish va hisobotlarning ishonchliligini ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, gudvillni hisobga olish, adolatli qiymat usulini joriy etish va taqsimot balansi shaklini standartlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Umuman olganda, taklif etilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar milliy buxgalteriya hisob tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiyotda shaffoflikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son qarori «Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida».

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son farmoni «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».

3. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2016 (yangi tahrir).

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS / MHXS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.

5. IFRS 3 – Business Combinations (MHXS 3 «Biznes birlashuvlari»). – IFRS Foundation.
6. IFRS 10 – Consolidated Financial Statements (MHXS 10 «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot»). – IFRS Foundation.
7. IFRS 13 – Fair Value Measurement (MHXS 13 «Adolatli qiymatni aniqlash»). – IFRS Foundation.
8. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari: BHMS 23 – «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish».
BHMS 8 – «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar».
9. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Ob’edineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansi i statistika, 2019.
10. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: nazariya va metodologiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YANGI ISH O’RINLARINI YARATISH VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Muxammadiyev Kamoliddin G’ulomiddinovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Bank ishi" kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o'rinlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirishning asosiy muammo va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta'siri, an'anaviy kasblarning o'zgarishi hamda yangi raqamli ixtisosliklarning paydo bo'lishi ko'rib chiqiladi. Jahon amaliyotidagi ilg'or tajribalar va O'zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonidagi hozirgi holat baholanadi. Raqamli ish o'rinlari yaratish va inson kapitalini takomillashtirish yo'lida mavjud to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, inson kapitali, raqamli ish o'rinlari, mehnat bozori, raqamli ko'nikmalar, IT soha, ta'lim tizimi, raqamli transformatsiya.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mehnat bozorida tarixda misli ko'rilmagan o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt, robototexnika, bulutli hisoblash va katta ma'lumotlar texnologiyalari bir tomondan millionlab an'anaviy ish o'rinlarini avtomatlashtirib, ularni qisqartirish xavfini tug'dirsa, ikkinchi tomondan tamoman yangi kasblar va ish o'rinlarining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda. Jahon iqtisodiy forumining so'nggi hisobotlariga ko'ra, 2025 yilgacha raqamlashtirish tufayli taxminan 85 million ish o'rni o'z hozirgi shaklini yo'qotadi, ammo bir vaqtning o'zida 97 million yangi raqamli ish o'rni yaratiladi. Bu o'zgarish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ta'limiy tizimlar uchun ham ulkan sinovni ifodalaydi.

	Aleksejeva Tursunov F.M.	*services in commercial banks*	
94	*Jumanova I.*	*Korxonalar investitsion faoliyatini rag‘batlantirishda davlat siyosati va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish*	*437*
95	*Xannarov K.K.*	*Uy-joy qurilishida eskrou tizmining ijtimiy-iqtisodiy samaradorligi*	*441*
96	*Kurbanov B.*	*Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda investitsiyalarni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish*	*445*
97	*Xolikulov O‘. A. Hayitmurodov I. Rahmatov B.*	*To’lov tizimi va uning strukturasi*	*449*
98	*Tursunov F.M.*	*O‘zbekiston respublikasi tijorat banklarining kapitalini boshqarishning ahamiyati*	*452*
99	*Urazov K. Abdurasulov J.*	*Qayta tashkil etishning ajratib chiqarish shaklida aktiv va majburiyatlarni taqsimlashning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish*	*456*
100	*Muxammadiyev K.G’.*	*Raqamli texnologiyalar asosida yangi ish o’rinlarini yaratish va inson kapitalini rivojlantirish muammolari*	*460*
101	*Shodiyev A. Axrorov Z.*	*Jismoniy shaxslar daromad solig‘i tizimi: amaliyot, muammolar va takomillashtirish istiqbollari*	*466*
102	*Qodirov Y. Abdirimova M.*	*Valyuta riskini nazorat qilish yo’llari*	*472*
103	*Xoliqulov O‘.A. Azamov O.U.*	*Ta’lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari*	*479*
104	*Ruzimuratov O. Narzullayev R.*	*Ta’lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari*	*484*
105	*Qarshiboyev X. Muradov K.*	*Main trends in the development of the world tourism and hospitality industry*	*490*
106	*Usmonqulov A. Xolmirzaev E.*	*Tijorat banklarning asosiy faoliyati va ular duch keladigan qiyinchiliklar*	*493*
107	*Ruzimuratov O.B. Narzullayev R.N.*	*Ta'lim va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish yo'llari*	*496*
108	*Pulatov D. Abdug‘aniyev U.*	*O‘zbekistonda ochiqlik indeksi va korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi*	*501*
109	*Norqulov H. Haqnazarova X.*	*Bank boshqaruvida muomala madaniyatining ahamiyati va uni rivojlantirish yo‘llari*	*508*
110	*Niyozov Z. Azamov O.*	*Tijorat banklarida to'lov tizimlarini takomillashtirish orqali kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari*	*510*
111	*Абдуллаевна У.У.*	*Ликвидности небанковских кредитных организаций*	*514*

“BANK-MOLIYA TIZIMI ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGNI TA’MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2026-yil 2-3-aprel

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2026.

ISBN: 978-9910-225-66-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **“STAP-SEL” MChJ.** nashriyoti,
Samarqand-2026

1342

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 51,37
Buyurtma № 0062A/26. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.